G‘AFUR G‘ULOMGA E’TIROF VA EHTIROM

Aslonov Yosin Farrux o’g’li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti
3-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18830390

Har qanday jamiyatning o’ziga xos ma’naviy ehtiyojlari mavjud bo’lib, ular orasida bilimga bo’lgan ehtiyoj yetakchi o’rinni egallaydi. Insonning bilm va ilmni egallab kundalik amaliy faoliyatda ularga amal qilish insof, iymon, vijdon, ixlos kabi ko’plab ma’naviy fazilatlarning yanada mustahkamlanishiga olib keladi.

Jamiyatning ma’naviy taraqqiyotini ma’rifatsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Ma’naviyat har doim ma’rifat bilan ya’ni bilim bilan uyg’un holda rivojlanib boradi. Har ikkalasining uyg’unligi ta’minlangan sharoitdagina yoshlarni ma’naviy barkamol, iymon-e’tiqodli, vatanparvar, insonparvar, vijdonli, diyonatli, or-nomusli, halol va pok insonlar bo’lib tarbiya topishlariga erishish mumkin. Ma’naviyat va ma’rifat birgalikda bir maqsadni ko’zlaydi, ya’ni kishilarni kamolot cho’qqisini egallashlari uchun yo’l ochadi.

Asosiy qism

“Adiblik – qismatdir, Adiblik – taqdirdir”. U vatan va millat uchun qalbidagi eng teran tuyg’ularni bahshida etish qismatidir. Shuning uchun ham O’zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3-fevral kuni Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy boqqa tashrifi chog’ida Adiblar hiyoboni barpo etishning ulkan tarixiy rejasi belgilangan edi. O’sha yili 18-aprelda davlat rahbarining tegishli qarori qabul qilinib, hiyobonning me’moriy-g’oyaviy loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu qarorning 2-ilovasi (Atoqli adiblar nomidagi maxsus stipendiyalar va ko’krak nishonlari to’g’risida NAMUNAVIY NIZOM)ga ko’ra Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan G’afur G’ulom nomidagi maxsus stipendiya hamda ko’krak nishoni ta’sis etildi.

Qarorda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, universitetda G’afur G’ulom ijodini keng targ’ib qilish yo’lga qo’yilmoqda. Shu maqsadda mutasaddi rahbarlar hamda professor-o’qituvchilardan iborat ijodiy guruh tuzildi va o’quv-ma’rifiy tadbirlar rejasi ham ishlab chiqilgan.

G’afur G’ulom nomidagi ko’krak nishoni bilan nafaqat ijodkor talabalar, balki ilmiy marifatga oshno o’qituvchilarni ham taqdirlash ko’zda tutilgan. Bundan tashqari, adibning muxlislari uchun qulayliklar yaratish maqsadida maxsus veb-saytlar yaratildi, unda adib ijodiga bag’ishlangan asarlar joylashtirildi. Axborot-resurs markazida shoir asarlarining doimiy

ko'rgazmasi ishlab turibdi, G'afur G'ulom xonasi ham tashkil etilgan. Universitet talabalarining TSUL ART ijodiy jamoasi adib asarlarini saxnalashtirib, ijtimoiy tarmoqlarda jamoatchilikka taqdim etib kelmoqdalar. Shu o'rinda G'afur G'ulom hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Sharqdan kelayotirman" mavzusida hujjatli film senariysi tayyorlanib, O'zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligiga taqdim etilganini ham aytishimiz joiz.

G'afur G'ulom ijdoi, ma'naviy-falsafiy merosini talaba yoshlar qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirish borasida universitet hamda O'zbek tili va adabiyoti, Horijy tillar kafedralari tomonidan ham talay ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Toshkent davlat yuridik universiteti jamoasiga, yozuvchi va shoir G'afur G'ulom hayoti va ijodini o'rganish, uni talabalar, aholi, ayniqsa, yoshlar orasida keng targ'ib qilish vazifasi yuklatilgan.

Universitet jamoasi tomonidan 2023-yilda adib tavalludining 120 yilligiga bag'ishlab turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilgan edi. Shunday tadbirlardan biri yana biri poytaxtimizdagi Adiblar hiyobonida o'tkazilgan edi. Adabiyotshunos olimlar, professorr-o'qituvchilar va talabalar ishtirok etgan tadbirda adib hayoti va ijodini keng targ'ib qilishda faol ishtirok etgan universitet professor-o'qituvchilari va talabalariga Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan ta'sis etilgan G'afur G'ulom ko'krak nishoni va maxsus stipendiyalari tantanali tarzda topshirilgan edi.

Quyida ko'krak nishoni va maxsus stipendiyalar egalarining ba'zilari bilan tanishishingiz mumkin:

- *Durdona Rasulmuhamedova, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti;*
- *Manzura Shamsitdinova, "Horijiy tillar" kafedrasi dotsenti;*
- *Xayitgul Pirmedova, Axborot resers markazi direktori;*
- *Bekzod Narimanov. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'I;*
- *Zilola Ochilova, "Ommaviy huquq" fakulteeti 4-bosqich talabasi.*

Toshkent davlat yuridik universiteti tarkibidagi kafedralarning professor-o'qituvchilari, bakalavr va magistratura talabalari shoirning ulkan me'rosini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. 2021-yil universitetda filologiya fanlari nomzodlari N.Bozorva (TDYU) va T.Matyoqubova (Tosh DUTAU) nashirga tayyorlangan "G'afur G'ulomning badiiy mahorati (ilmiy maqolalar to'plami)" chop etildi. To'plamdan G'afur G'ulom hayoti va ijodiga bag'ishlangan turli mavzudagi 32 ta maqola o'rin

olgan. Mualliflar: taniqli akademiklar, filologiya fanlari doktori va nomzodlari, adabiyotshunos olimlar va ilmiy hodimlar.

Atoqli o'zbek shori akademik G'afur G'ulom hayoti va ijodi o'zbek adabiyotining turli sohalariga doir kitob, darslik va to'mlamlarda ham yoritilgan. Shuningdek, mutafakkir shoirning ijodiy faoliyati, ilmiy izlanishlari va erishgan yutuqlari qalamga olingan manbalar (monografiyalar, ommabop risolalar va maqolalar) hah bir talay, mualliflar adibning zamondoshlari, shogirdlari va muxlislaridir. O'z davrida Odil Yoqubov, ozod Sharafiddinov, Salohiddin Mamajonov, Adham Akbarov, naim karimov, Vahob Ro'zimetov singari olim va adiblar qiziqarli va keng kuzatishlar olib borganlar.

S. Mamajonov. Gafur G'ulom ijodi, bosib o'tgan salkam yarim asrlik yo'lini, uning qalmiga mansub barcha janrdagi asarlarni o'rganishda S.Mamajonov yangi ruh, yangicha nazariy yondashuvlar olib kirdi. Tanqidchi ijodidagi, xususan, G'afur G'ulom haqidagi izlanishlaridagi ayrim zamonasozlik ruhini ham e'tibordan chetdan qoldirib bo'lmaydi, albatta. Lekin bundan qat'iy nazar, uning shoir she'riyati va nasri atroflicha o'rganilgan "Shoir va zamonaviylik"(1963-yil) hamda "G'afur G'ulom prozasi" (1966-yil) nomli monografiyalari o'z davrining katta yutug'I bo'ldi. Tanqidchi Gafur G'ulom ijodi haqida ko'p yillardan beri olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosida "G'afur G'ulom mahorati" mavzuda doktorlik disertatsiyasini yoqladi (1968-yil). Bu boradagi ishlarini davom ettirib, "Uslub jilolari" nomli kitobini nashir ettirdi (1972-yil). Shu tarzda serqirra ijodkor G'afur G'ulom haqida S.Mamajonovning ilmiy-tadqiqotlaridan iborat uchta monografiya vujudga keldi. Ulkan san'atkor G'afur G'ulom ijodi haqida bitilgan bu ishlar adabiyotshunosligimizda o'ziga xos ilmiy trilogiya namunasidir.

Bu davrda B.Nazarovning "G'afur G'ulom olami" (2003-yil), N.Karimovning "G'afur G'ulom ijodiyoti"c(2003-yil), T.Matyoqubovaning "G'afur G'ulom badiyati" (2006-yil) nomli yirik taqdiqotlar ham yaratildi.

Yuqoridagi manbalarda keltirilgan keng ko'lamli va qiziqarli ma'lumotlar shaxs – ziyoli olim – serqirra iste'dod sohibi qoldirgan merosning naqadar ulkan ekanini tasdiqlaydi.

"Akademik G'afur G'ulom". Aziz Qayumovning 2008-yilda chiqarilgan ushbu kitobida buyuk shoir va olim, akademik G'afur G'ulom hayoti va ijodi haqidagi esdaliklari o'rin olgan. Ushbu kitob ilk bor 2002-yilda chop etilgan bo'lib, mazkur ikkinchi nashri o'zbek xalqi ulug' farzandining umr yo'li, ijdoiy va ilmiy faoliyati haqidagi yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan. To'plamda akademik shoirning zamondoshlari, qalamkash do'stlari hamda adabiy

hamkasblari, shuningdek, she'riyat muxlislari jotiralari keltirilgan. Muallifning badiiy tili g'oyat jozibador, dastlabki saxifalaridanoq kitobxon e'tiborini o'ziga tortadi, shoirning bebaxo iste'dodi va hayot tajribasi olamiga olib kiradi

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, G‘afur G‘ulom ijodi va ilmiy-merosiy faoliyati nafaqat o‘zbek adabiy tafakkuri tarixida, balki milliy ma'naviyat taraqqiyotida ham alohida bosqichni tashkil etadi. Adibning badiiy-estetik qarashlari, insonparvarlik va ma'rifatparvarlik ruhidagi asarlari jamiyatning ma'naviy ehtiyojlari bilan uyg‘un holda shakllangan bo‘lib, ularning mazmun-mohiyati bugungi globallashuv sharoitida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmayapti.

Toshkent davlat yuridik universitetida amalga oshirilayotgan tashkiliy, ilmiy va ma'rifiy ishlar adib merosini tizimli o‘rganish, uni yoshlar ongiga singdirish hamda zamonaviy talqin asosida targ‘ib etishning samarali modelini namoyon etmoqda. Bu jarayon shunchaki xotira va ehtirom ifodasi emas, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy-madaniy merosni institutsional asosda davom ettirishning muhim ko‘rinishidir.

Ilmiy manbalar, monografiyalar va adabiy-tanqidiy tadqiqotlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, G‘afur G‘ulom fenomeni ko‘p qirrali bo‘lib, u adabiyotshunoslik, tilshunoslik, ma'naviyatshunoslik hamda madaniyatshunoslik kesishgan nuqtada o‘rganilishi lozim bo‘lgan murakkab ijodiy hodisadir. Demak, uning merosini chuqur tadqiq etish va zamonaviy yosh avlod ongiga singdirish – bu nafaqat adabiy jarayonning, balki milliy taraqqiyot strategiyasining ham tarkibiy qismi sifatida baholanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Akobirova S.T. O'zbekistan va Amerika adabiy aloqalari (G'afur G'ulom va Lengston Xyuz ijodi misolida). Monografiya./ S.T.Akobirova. – T.: "Impress media" nashriyoti, 2024-yil. – 184 bet.